

**Taqrizchi : Mahmudov Dilshod Shahrabsabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari nomzodi PhD**

**Otamurodov Doniyorbek Odilboy o'g'li**

Shahrabsabz davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : **Baratov Hamidullo**

Shahrabsabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## **AMIR SHOHMURODNING DINIY SIYOSATI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Amir Shohmurod tomonidan olib borilgan diniy islohotlar mazmun - mohiyatini yoritishga uning xalqni ma'naviy-ma'rifiy hayotini yuksalishiga qo'shgan hissasi to'grisida so'z boradi . Maqolani yoritish uchun mahalliy tarixchi olimlarning asarlaridan va chet el sayyoohlari tomonidan yozilgan kundaliklardan ushbu mavzuga oid nashrdan chiqqan maqolalardan ham ma'lumotlar kiritildi .

**Kalit so'zlar :** Madrasa, masjid, tariqat, darvesh , imom , muazzin , Amir Shohmurod , Amir Haydar , Herman Vamberi , James Robert Pickett, Xalifa Xudoydod, Muhammad Safar Xorazmiy , Doniyolbiy otaliq .

**Abstract:** This article is about the contribution of Amir Shahmurad to the development of the spiritual and educational life of the people. The works of local historians and diaries written by tourists were used to cover the article. Taking into account the needs of the times, articles published on this topic were also used.

**Key words:** Madrasa, mosque, tariqat, dervish, imam, muezzin, Amir Shahmurad, Amir Haydar, Herman Vambery, James Robert Pickett, Khalifa Khudoidad, Muhammad Safar Khorezmi, Daniyolbi fatherhood.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вкладу Амира Шахмурада в развитие духовной и просветительской жизни народа. Для оформления статьи использованы труды краеведов и дневники туристов. Учитывая потребности времени, были использованы и статьи, опубликованные на эту тему.

**Ключевые слова:** медресе, мечеть, тарикат, дервиш, имам, муэдзин, Амир Шахмурад, Амир Хайдар, Герман Вамбери, Джеймс Роберт Пикетт, Халифа Худоидад, Мухаммад Сафар Хорезми, отцовство Даниелби.

**Kirish:** O'zbek davlatchiligi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan Buxoro amirligi o'zining boy va jozibador tarixiga egadir . Ushbu amirlikni idora etgan tarixda " Umari Soniy " deb nom olgan Amir Shohmurod Buxoro davlatchiligiga ulkan hissa qo'shdi . Uning islohotlari xalq farovonligini oshirdi sarhadlar xavfsizligi taminladi . Islohotlari ichida eng samarali bo'lgan , diniy sohada olib borgan o'zgarishlari , ushbu sohani isloh qilish uchun chiqargan farmonlari amirlikning ma'naviy -ma'rifiy hayotini yangiladi .

**Adabiyotlar tahlil va metodologiya :** Ushbu mavzuni yoritish uchun undagi ma'lumotlarni asosiligidini ta'minlash uchun bir nechta asarlardan unumli ravishda foydalanildi . Jumladan mahalliy tarixchilardan . A. Zamonov , J. Abdurakimov qalamiga mansub , " Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar" , S. Buxoriyning "Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari" va A. Jumanazarovning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi" kabi asarlardan foydalanildi . Ushbu asarlarda Amir

Shohmurod tomonidan olib borilgan islohotlarga ijobiy baho berilgan va ta'rixiy ma'lumotlar bilan boyitilgan. Chet el sayyoohlari qalamiga mansub bo'lgan asarlarda esa Amir Shohmurod islohotlariga nisbatan ikkinchi bir qarash salbiy qarash mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Buni Herman Vamberi , James Robert Pickett , kabi tarixchi olimlarning asarlarida uchratamiz . Bu esa mavzuni yoritishda izlanuvchi tomonidan mavzuga nisbatan tanqidiy - tahliliy qarashni talab etadi.

**Muhokama va natijalar :** Buxoro amirligini boshqargan Amir Shohmurod o'zining boshqaruvi davrida bir nechta muhim islohotlar amalga oshridi ushbu islohotlar ichida diniy sohada amalga oshirgan islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi . Amir Shohmurod o'zidan oldingi hukmdorlar Arkda qurdirgan binolardan keraklilarini qoldirib, qolganini esa buzdirib Buxoro shahri ichkarisi va tashqarisidagi masjidlarga ishlatgan[1]. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Amir Shohmurod, ayniqsa uning vorisi Amir Haydar diniy amallarga hatto XVI asrdagi Ubaydullaxondan ham kuchliroq rioya qilganlar[2]. Amir Shohmurod hatto Amir Haydarning kamtarona o'tgan hayoti ko'p hukmdorlar uchun o'rnak bo'lishga arziydi . Ikki ota bolaning ham darveshlik hirqasiga qiziqishi baland bo'lgan . O'sha davr muarrixlari bu masalaga fikr bildirayotgan payti darveshlik hirqasini kiygan amir deya ta'rif berishadi . Hatto ba 'zi manbalarga keltirilishicha Afg'oniston shohi Temurshoh ham Amir Shohmurod haqida eshitganda , uning sahoba va tobeinlarga o'xshash hayoti haqida ma'lumot olganda eng ashaddiy dushmani bo'lsa ham unga hurmatini izhor etib sovg'a salomlar jo'natganligi haqida ma'lumotlar bor.

Amir Shohmurod masjidlarga yangi imom va muazzinlar, ziyoratgohlarda shayxlar tayinlagan hamda ular ustidan nazorat o'rnatgan. Olis tuman, qasabalarga fozil, olim kishilaridan qozi va raislar tayinlagan[5]. Madrasa mudarrisi, muftiy, imom, qozi va boshqa diniy mansablarga nomzodlarni tayinlashda ularning shariat normalariga amal qilish darajasi, ilmiy bilimlari va ilmiy savodxonligiga e'tibor qaratgan. Amir Shohmurod nafaqat Buxoro shahrida balki amirlikning turli viloyatlariga borib ulardagi masjid va madrasalarda shariat huquqi normalari va ularni tadbiq etishga oid masalalar yuzasidan mashg'ulotlar o'tkazib kelgan. Masjidlarda imomlik qilib, namoz tugaganidan so'ng „oliv yig'in“ni (majlisi oliyni) chaqirgan hamda unga ilm ahlini, qozilarni, hadisshunos olimlarni to'plagan. Ushbu majlislarda islom huquqi normalariga, huquqiy odatlarga asoslangan holda aholiga ularning fiqhiy muammolarga oid savollariga javob qaytargan[4]. Bu davrda Buxoroga o'tmishdagi shukuhi qaytganday bo'ladi[5]

Darhaqiqat Amir tomonidan juda ham ko'plab fiqhiy munozaralar o'tkazilgan Ushbu fiqhiy munozaralarda Amir ko'p hollarda ustun kelar edi . Amir har bir diniy amaldorni shaxsan o'zi imtihondan o'tkazishga harakat qilar edi uning bilimini fiqhiy savollar berib sinab ko'rар edi . Agar talabgorning bilim darajasi yetarli bo'lmasa u yuqori lavozimlarga qo'yilmas edi . Amir diniy amaldorlar o'rtasida molparastlik va riyokorlik avj olishiga qarshi edi . U ulomalarni hurmat qilar ammo siyosat maydonida tarozi pallasini ushslashga astoydil harakat qilar edi Amir muqaddas islom dinidan o'z maqsadida foydalangan shaxslarni ayovsiz jazolar va ularni hokimiyat maydonidan olib tashlar edi . Bunga misol qilib Buxoro davlatining qozikaloni bo'lgan Sayyid Nizomiddining qatli yaqqol dalil bo'ladi . Amirlikda yuqori mansabni egallagan Buxoro davlatining qozikaloni bo'lgan Sayyid Nizomiddin asli millati forsiy bo'lib hokimiyat jilovini Doniyolbiy (1758-1785 ) davrida qo'lga kiritib bo'lgan edi . U molparastlik , ochko'zlik , riyokorlik kabi xislatlar bilan xalq orasida juda ham mashhur edi . Buxoro Amirligining saroy tarixchilaridan bo'lmish Ahmad Donish o'zining “ Buxoro Amirlari tarixi “ asarining Amir Shohmurodga bag'ishlangan bo'limida Sayyid Nizomiddin haqida salbiy ma'lumotlar keltirib o'tadi .

Rivoyat qilinishicha, qozi Sayyid Nizomiddinxo'ja mamlakatda shar'iy qonunlarning buzilishi va poraxo'rlikning avj olishiga sababchi bo'lgan ekan. [5:2]. Boz ustiga u Doniyolbiy otaliqqa Shohmurodni hokimiyatdan mahrum etishni maslahat bergen kishi ham edi [6]

Nizomiddin qatl etilish masalasini haqida ham ta'rixchilar o'z asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tadi . James Robert Pikkettning "Qo'qonning yuksalishi" asarida qozikalon Nizomiddinning qatl etilishi xususida shunday ma'lumot keltiriladi: "1785- yil o'zining qattiqqa'l, taqvodorligi bilan esda qolgan Amir Shohmurod taxtga o'tirgan kunidayoq qozikalon Nizomiddinning xatti-harakatlarini tahqirladi. Nizomiddin Shahar bosh qozisi Shodr Diya tomonidan mast holda holida chilim bilan bozorni aylanib o'tgan va nikohdan oldingi soxta bokiralik guvohnomalarini (mahranayi nikahi-bakira) pul evaziga tarqatgan, deb ta'riflangan. Natijada Shohmurod Nizomiddinni mashhur Mir Arab madrasasi hovlisida juda dahshatli tarzda qyinoqqa solib, qatl qildi"[7] - deb yozilgan. 1785-yili Nizomiddin Husayniy qatl etilgan so'ng, Hodi Xoja bosh qozilik lavozimiga ko'tarilib, Shayxulislom etib tayinlanadi. Shu bilan birga Nizomiddinning qatl jarayoni tog'risida, "Muntaxab at tavorix" asarida ta'kidlanishicha: "Nizomiddin otdan uloqtirilib, qornini temir qoziq bilan yerga mustahkamlashdi, so'ng uning tomog'iga oxirgi halokatli zarba berildi"[8]- deya, ma'lumot keltirilgan.

Amir Shohmurodning olim shayxlarga nisbatan hurmati yuqori bo'lgan. Xususan, Xalifa Xudoydodga Amir Shohmurodning ixlosi baland bo'lgan va u amirning taklifini qabul qilib, Pirmastdan Buxoroga ko'chgan[8]. O'z davrida Amir Shohmurodga ilm bergan Xalifa Niyozquli Masjidi Kalonga imom-xatib vazifasiga tayinlangan. U bu vazifani Amir Haydar davrida ham, deyarli 30 yil, o'limiga qadar bajargan[9].

Tarixchi Mulla Olim mahdum hoji o'zining Tarixi Turkiston asarida Amir Shohmurod haqida so'z yuritib, xususan, uning din yo'lidagi siyosatini quydagicha xaraktirlaydi:

Shohmurodbiy ziyoda so'fiy, xudoga yaqillashish yo'lini tutgan (doxuli suluk) va taraqqiy parvar, shariat targ'ibotchisi (shar'i sharif), taomi o'z kasbi halolidan edi[6:2].

Amir Shohmurodning o'zi ham alloma va ilohiyotchilardan biri bo'lgan. U islom ilmining ko'plab asarlarini o'rganib, o'sha davrning uch nafar ko'zga ko'ringan Qur'on qorilari — Hofiz Ashuro, Qori Nadir Boqiy va Xalifa Niyozqulilardan Qur'on tilovati mahoratini egallagan. Amir Shohmurod fiqhga doir kitoblar yozgan[43]. U tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan „Ayn fihiyat“ („Donishmandlik asoslari“) asarini yozgan, hanafiya mazhabiga doir „Fatavayi ahli Buxoro“ („Buxoro ahliga fatvolar“) fatvolar to'plamini tuzgan[6]. Amir Shohmurod bu to'plamni to'liq kitob holiga keltirishga ulgurmagan. Uni o'g'li Amir Haydar oxiriga yetkazgan[7][5].

Amir Shohmurod tomonidan olib borilgan diniy islohotlar va diniy siyosat to'g'risida ham ba'zi bir salbiy qarashlar mavjud . Bu salbiy qarashlarning shakllanishiga turli muhut va turli darvlar o'ziga xos ravishda ta'sir etgan . Chet el sayyoohlarining ba'zi bir salbiy qarashlari -yu sovet tarixshunoslining ba'zi bir namoyondalari tomonidan yozilgan buyurtma tarixiy asarlarda Shohmurod haqida o'rinsiz salbiy fikrlar bildirilgan . Buni biz bir nechta manbalar asosida ko'rib chiqamiz.

Malkolmning "Eron tarixi" asarida Amir Shohmurod "Makkor zohid" deya ta'riflanib, shunday ta'kidlanadi: "Amiri Mas'umning siyosiy nufuzi ortib borgan sari davlat idoralarining har birida shariat ahkomlariga muvofiq ish yuritishda boshladi. Buxoro bunga doim mayl ko'rsatib kelsa-da, biroq so'nggi xonlarning kuchsiz boshqaruvi paytida buni amalda qo'llash mumkin bo'lмаган. Bu makkor zohidning o'zi islom ahkomiga ilgarigi hurmatni qaytarish bilan mashg'ul bo'lgan paytda Abulg'oziga, aslida zig'ircha hurmati bo'lмаган xonlik obro'si bilan huzur qilishga imkon berdi. Bir tomonidan o'zining zohidlik taqvosi, ikkinchi tomonidan qati'y tadbirilar bilan barcha narsa o'zining iziga tushgach, maqsadga o'tdi. U soxta ashtarkoniying hayot tarzida nuqsonlarni topib, uni faxriy istirohatga yuborib, bir miqdor maosh bilan ta'minladi va 1199(1784) yil shabon oyida zohidlik hirqasiga yarashmaydigan amallar bilan taxtga o'tirdi"

Herman Vamberi qalamiga mansub “Buxoro yoxud Muvarounnahr tarixi” kitobida Shohmurod yoshligida otasi tomonidan “Begijon” deb erkalangan, ulg`aygach Shohmurod, ya`ni shohning orzusi deb atalgan amir Mas`um o`z asrining riyokor so`fiylik va soxta diyonatkorlik ruhining timsoli mujassam edi. Uning maxsus sifati soyasida ruh yanada taraqqiy etib, oxirgi nuqtasiga yetdi. U yoshlik davridayoq diniy yig`inlarga mayl ko`rsatdi. Hatto, tashqi qiyofasini ham o`zgartirib, darvishlar hirqasini kiydi, ba`zan butun kunini xonaqohlar va masjidlarda o`tkazib, zikr va sama` bilan mashg`ul bo`lib, bunday vaqlarda hech kim uning rohatini buzishga jur`at qila olmasdi. Ammo uning aka-ukalari va qavmi-qarindoshlari dunyoviy hukmronlik uchun o`zaro vahshiyona bir dashmanlikda yashamoqda edilar. Mas`um otasidan qolagan merosdan voz kechib: “Ommaga xayr tarqatuvchilarga beringlar, meros moli bilan qo`limni kir qilishni xoxlamayman, bu mollar kimlardan yig`ilgan bo`lsa, shularga qaytarilsin, iloji boricha mukofot tarzida berilsin” dedi [10].

Ingliz sayohatchisi Henry Skrine amir Shohmurodnинг diniy sohadagi siyosati haqidagi quydagilarni yozib qoldirgan:[48]

Amiri Ma’sum „Raisi shariat“ ya`ni diniy senzurani qayta tikladi. Raisi shariat mansabidagi amaldorlar odamlarni qamchi bilan namoz o`qishga majburladilar, zohiriylar marosimlarni e’tiborsiz qoldirib, qattiq kaltaklar bilan ibodat qilishga chorladilar. Sharob va tamaki iste’mol qilish qattiq taqiqlandi, o‘g‘rilar, talonchilar va fohishalar sudsiz jallodga topshirilgan[11].

Henry Skrine ushbu fikrlarni o’z dunyoqarashidan kelib chiqib bayon etgan edi. Henry Skrine yashagan Angliya muhiti ila Buxoro amirligi o’rtasidagi farq katta edi . Sharob va tamaki odatiy hol bo’lgan Yevropada yashagan Henry Skrine Buxoro amirligida ushbu narsalar taqiqlaganini bilgani uchun salbiy fikrlar bilan o’z asariga alohida urg’u berib , o’z fikrlarini bayon etgan . Diniy senzura yoki diniy hokimiyat O’rta Osiyoga islom dini kirib kelganidan to 1920- yilgacha hukmronlik qilgan . Ushbu fikrlardan kelib chiqib Henry Skrine fikrlari faqatgina hozirgi davr uchun mos ammo xonliklar davrida Henry Skrine takidlab o’tgan , Buxoro Amiri amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan ishlar o’z davri uchun odatiy holat hisoblangan .

Sovet tarixshunosligida Amir Shohmurod tomonidan olib borilgan diniy islohotlar va yurgizgan diniy siyosat masalasida asossiz ravishda salbiy fikrlar bayon etiladi . Bu Soviet tarixshunosligiga xos uslub edi afsuski , ushbu uslubni ba’zi bir o’zbek tarixchilari va o’zbek ziyoli segmenti Soviet davrida ham hozir ham ba’zi adabiyotlarda davom ettirib kelmoqda . Tarixchi har qanday tarixiy masalaga o’sha davr nigohi ila fikr bildirishi har ikki tomonni ham chuqur o’rganib, xolisona baho berishi lozim . Yuqorida bayon etilgan fikrlarni Fitratning Amir Shohmurodga bildirgan salbiy fikrlari misolida ko’rishimiz mumkin .

“Shohmurod tor dunyoqarashli kishi edi, Lekin unchalik ahmoq ham emas edi. Otasi hayot paytida boshyalang va oyoqyalang yurar edi. Hammol yoki tilanchiga o’xshar edi. Shohmurod fe’l atvori o’ziga o’xshaydigan juda ko’p so’fi va shayxlarni o’z atrofiga to’pladi va ular gumroh xalq oldida uni “avliyo” darajasiga ko’tarishdi. Marv sutonligining tanazzulga uchrashi Shohmurodnинг fasod niyatları tufayli edi. Shohmurod dunyoqarashi cheklangan kishi edi. U qo’shni davlatlardan panoh istab kelganlarni qatl ettirar, obod va osoyishta bir shaharni kulini ko’kka sovurar, minglab aholini qul bozoriga sottirar edi”.

Fitratning ushbu fikrlariga quydagi ma’lumotlar bilan izoh berib o’tishni lozim ko’rdik .

So’nggi uch xonlik tariximizning eng tanazzulli davrlari bo’lib, tarixshunosligimizda xonlar va amirlarni ana shu tanazzulda ayblash an’anadir. Bu xalqqa ham singdirilgan. Ayniqsa Buxoro amirlari haqida gap ketganda deyarli barcha ularga faqat salbiy fikrda qaraydi. O’zbek tarixshunosligi istaymizmi yo’qmi sovet tarixshunosligi ostonasi orqali bino bo’lgandir. Soviet tuzumi bo’limganida

O'zbekiston nomli mamlakat ham, uning tarixshunosligi degan atamalar ham paydo bo'lishi mumkun bo'lmas edi. Chunki mintaqani bo'ib tashlab, 5 ta alohida "iston" ni qurgan aynan bolsheviklardir. Yangi O'zbekistonga "O'zbekiston tarixi" deya ataluvchi zamonaviy ammo g'oyalarga to'lib toshgan fanni sovg'a qilganlar ham aynan bolsheviklar va ularga xizmat qilgan mahalliy ziyolilardir. Bu faktlarni rad etish mumkun emas.

Sovet davriga nisbatan bugun salbiy ko'z bilan qaralsa-da, u davrdagi tariximizga oid sovetcha fikrlash bugun ham mavjud. Demak ayta olamizki Buxoro amirlari haqidagi eng salbiy fikrlar aynan sovet zamonida bo'lган va bu isloҳ qilinmagan holatda bugungi ziyolilar ongiga kirib borgan. Sovet davlatchiligi o'z tomonida faoliyat ko'rsatgan mahalliy ziyoli jadidlar vositasida amirlik tuzumi tarixini qaytattan yozdirdi. Bunda Fitrat, S.Ayniy kabi tarixchilar asosiy rol o'ynashdi.

1. Buxoro amirligi sovet davlatning ashaddiy raqibi bo'lган. Tabiiyki dushman mamlakatni ayblast odatiy holat. Bir tuzum o'zidan oldingi tuzumni ayblashi tabiiy. Bu xuddi biz bugun sovet zamonini ayblashimizdek bir gap.

2. Jadidlar va amirlik qarama qarshiligi....

Fitrat va S.Ayniy bunday ayblovlarni sovet davlati bosimi ostida yozmagan. Nafaqat bu odamlar, balki butun yosh buxoroliklar sistemasi vakillari amirlikni yoqtirishmagan. Bu sizga ayon. Jadidlar 1917-1918-yilgi qiyin siyosiy davrda guruhlarga bo'linishdi: kimdir sovet davlatidan yuz o'girdi, kimdir esa aksincha. Aksincha ish qilganlar tirik qolish va o'sish hamda mustaqillik g'oyasini rivojlantirish uchun sovet qolipida yashashga rozi bo'lishdi.

3. Xalq qayta tarbiyalanishi, kommunistcha ruhda yashashi va o'sishi, eski dunyoni unutishi va unga xatolik bir davr sifatida qarashi lozim edi. Butun O'zbekiston endilikda faqat kommunistik fikrlashi lozim edi. Birinchi navbatda tarixdan qurol sifatida foydalanishdi: Buxoro amirligining ijobiylar salbiy jihatlarining barchasi bitta - "jaholat, qoloqlik va diniy fanatizm davri" sifatida baholanib, yangi davr yoshlari ko'z o'ngida jilvalandi. Tarix (Buxoro amirligi) qora bo'yodqa, buguni (Sovet davlati) esa oq bo'yodqa ko'rsatildi.

100 yil oldin sovetlar buyurtmasi ila alloma Fitrat va S.Ayniy kabi yetuk jadidlar boshlab bergan biryoqlama tarix sovet zamonida gullab-yashnab, ziyolilarimiz va xalq ongiga kirib bordi.

Biz ushbu fikrlar orqali Buxoro amirlarini maqtash lozimligini va aksincha jadidlar fikri faqat buzg'unchilik asosiga qurilganini uqdirmoqchi emasmiz. Biz faqat Buxoro amirlariga va tarixiga nisbatan bunday biryoqlama fikrlashning paydo bo'lish sabablarini juda sodda tahlil qilishga urindik.

**Xulosa :** Tarixiy davrlar va tarixiy jarayonlarga nisbatan doimo turli xil qarash va fikrlar mavjud bo'lган. Amir Shohmurod tomonidan olib borilgan diniy islohotlar samarasini masalasida ham ikki xil qarash mavjud . Shu ikki xil qarashni ham o'rganib , xolis fikr bildirishimiz lozimdir. Shuni unutmasligimiz lozimki , har qanday talqinda ham Amir Shohmurod tomonidan olib borilgan diniy islohotlar xalqqa ko'proq foydali bo'lган va xalqning ma'naviy – ma'rifiy hayotining yuksalishiga hissa qo'shgan , buni esa tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari tasdiqlaydi .

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1.To'rayev H.. *Mahalliy o'lkashunoslarning ilmiy merosida tarixiy topografiya va me'moriy obidalar tarixi: Buxoro o'lkashunosligi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma*. Buxoro, 2019 — 72 bet.

2. Bartol'd B. B.. *Sochineniya. B 9 t. Tom III.* Москва: Наука, 1965 — 711 bet.
3. Zamonov A., Abdurakimov J. Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar . O'tmishga nazar.— 2020.
4. Shodiyev J. M.. *Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi.* Toshkent: TDYI nashriyoti, 2010 — 114 bet.
5. Jumanazar A. K.. *Buxoro ta'lim tizimi tarixi.* Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592 bet.
6. To'rayev H.. *Buxoro tarixi: o'quv qo'llanma.* Buxoro: Durdona, 2020 — 592 bet.
7. James Robert Pickett. Rise of the Kokand. P.304.
8. Buxoriy S. S.. *Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari.* Buxoro: Durdona, 2012 — 300 bet.
9. Джурабаев Д. Х. Научные труды светских и религиозных деятелей Бухарского эмирата в конце XVIII — начале XIX века .Вестник Челябинского государственного университета. — 2013.
10. Herman Vamberi “Buxoro yoxud Muvarounnahr tarixi”, T:, “Capital group”-2019. 157-158-betlar.
11. Yorbozorov B. R. [Chet el sayyoohlarining Amir Shohmurod siyosatiga munosabati](#) .Международный научный журнал «Новости образования: исследования в XXI веке». — 2023.